

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TAKTU
TOSHKENT DAVLAT VOKZALI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI

1955
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual mulk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	



TEMIR YO'L VOKZALLARIDA QO'SHIMCHA XIZMATLAR RIVOJLANISHI: IQTISODIY SAMARADORLIK VA MOLIYAVIY BARQARORLIK OMILI



Iskandarov Kudrat Shuxratovich
Toshkent davlat transport universiteti, tayanch doktoranti
ORCID:0000-0001-9737-0195

Annotatsiya: Maqolada “Temir yo'l vokzallari” MChJ misolida qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi yoritilgan. 2024-yil natijalari va xalqaro tajribalar asosida xizmatlar diversifikatsiyasi hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarining ustunliklari tahlil qilingan. Oddiy ijara va DXSH shartnomalari 18 mezon bo'yicha taqqoslanib, DXSH uzoq muddatli barqaror moliyaviy model sifatida asoslab berilgan. Taklif etilgan yondashuv xizmatlar sifatini oshirish va transport tizimining iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: temir yo'l vokzali, qo'shimcha xizmatlar, tijorat faoliyati, moliyaviy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklik (DXSH), diversifikasiya, rail+property, yo'lovchi qoniqishi.

Abstract: The article examines the issue of ensuring financial stability through the development of additional services on the example of “Temir yo'l vokzallari” LLC. Based on the results of 2024 and international experience, the advantages of service diversification and public-private partnership (PPP) mechanisms are analyzed. Lease and PPP contracts are compared across 18 criteria, with PPP substantiated as a long-term sustainable financial model. The proposed approach contributes to improving service quality and enhancing the economic efficiency of the transport system.

Keywords: railway station, additional services, commercial activity, financial stability, public-private partnership (PPP), diversification, rail+property, passenger satisfaction.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос обеспечения финансовой устойчивости на примере деятельности ООО «Железнодорожные вокзалы» за счёт развития дополнительных услуг. На основе итогов 2024 года и международного опыта проанализированы преимущества диверсификации услуг и механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП). Договоры аренды и ГЧП сопоставлены по 18 критериям, при этом обосновано, что ГЧП является долгосрочной устойчивой финансовой моделью. Предложенный подход способствует повышению качества услуг и росту экономической эффективности транспортной системы.

Ключевые слова: железнодорожный вокзал, дополнительные услуги, коммерческая деятельность, финансовая устойчивость, государственно-частное партнёрство (ГЧП), диверсификация, rail+property, удовлетворённость пассажиров.

KIRISH

So'nggi yillarda temir yo'l vokzallarining ishlashi faqat chiptadan tushadigan daromad bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha xizmatlar orqali ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurligi tobora ko'proq sezilmoqda. “Temir yo'l vokzallari” MChJ faoliyatini tahlil qilsak, 2024-yilda korxona katta zarar bilan ishlagan, xarajatlarning yarmidan ko'pi ish haqi fondiga ketgani esa resurslardan samarali foydalanish muammosini ochib



beradi. Daromadlarning asosiy qismi komission yig'implardan iborat bo'lib, qo'shimcha xizmatlar ulushi atigi 6 foizga yaqinlashadi. Shu bilan birga, Germaniya yoki Gongkong vokzallarida qo'shimcha xizmatlarning ulushi 25–30 foizni tashkil etgani ularning daromad bazasi qanchalik kengaytirilganini ko'rsatadi [1], [2]. Demak, bizda ham xizmatlar xilma-xilligini oshirish va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish dolzarbdir.

Biroq qo'shimcha xizmatlarni faqat oddiy ijara orqali tashkil etish cheklangan natijalarni bermoqda. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish vokzallarni rivojlantirishda muhim yo'nalish sifatida ko'rilmoxda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday sheriklik nafaqat moliyaviy yukni yengillashtiradi, balki xizmat sifatini oshirish va yo'lovchilar uchun qulayliklarni kengaytirishga ham xizmat qiladi [3], [4]. Shu jihatdan, O'zbekistonda ham vokzal infratuzilmasini samarali boshqarish va yangi xizmat turlarini joriy etishda ushbu mexanizmlardan foydalanish istiqbolli yo'l hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlarda temir yo'l vokzallarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun daromad manbalarini kengaytirish muhim ekanii ta'kidlanadi. Ayniqsa, Hongkongdagi MTR tajribasi vokzal hududida savdo va xizmatlarni yo'lga qo'yish orqali asosiy transport xizmatidan tashqari barqaror tushum olish mumkinligini ko'rsatadi [1]. Boshqa ishlarda esa davlat va xususiy sektor hamkorligi, yer qiyamatini oshirishdan keladigan qo'shimcha mablag'larni jalb etish va vokzallarni shahar hayoti bilan uyg'unlashtirish investitsiya jalbini kuchaytirishi hamda yo'lovchilar uchun qulayliklarni ko'paytirishi qayd etilgan [2], [5]. Rus olimlari ham vokzal xizmatlarini raqamlashtirish, turli qulayliklarni kengaytirish va servis sifatini oshirish yo'lovchilarning qoniqishini kuchaytirishi va shu orqali daromad bazasini mustahkamlashga xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi [6], [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya hamda sintez kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish masalasiga qaratilgan bo'lib, u "Temir yo'l vokzallari" MChJ faoliyatiga oid 2024-yil yakunlari bo'yicha empirik ko'rsatkichlarni o'rganish, xarajatlar va daromadlar tarkibini tahlil qilish, xalqaro tajriba (Hongkongdagi "rail+property" modeli, Dehlidagi PPP-LVC mexanizmlari)ni qiyoslash, hamda Rossiya temir yo'l vokzallarida servis sifatini oshirish bo'yicha ilmiy ishlardan foydalanishni o'z ichiga oldi. Shu asosda oddiy ijara va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari afzalliklari solishtirilib, vokzallarda xizmatlarni diversifikatsiya qilish va barqaror moliyaviy modelni shakllantirish bo'yicha metodik asos ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston temir yo'l transporti tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoxda. Xususan, 2023-yil 10-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-sun qarori[8] ushbu jarayonning muhim normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Qarorda temir yo'l transportini chuqur isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xususiy sektorni faol jalb etish, biznes jarayonlarni raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda mamlakatning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Mazkur hujjatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida qator tashkiliy va institutsional o'zgarishlar bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Shu jumladan, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" aksiyadorlik jamiyatiga tarkibida temir yo'l vokzallari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida "Temir yo'l vokzallari" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga (MChJ) tuzildi. Ushbu xo'jalik yurituvchi subyekt tijorat tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi hamda uning asosiy maqsadi — vokzal infratuzilmasidan foydalanish orqali xizmat ko'rsatish faoliyatidan foyda olishdan iboratdir.

"Temir yo'l vokzallari" MChJning tashkiliy-huquqiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyatdan iborat bo'lib, yagona ta'sischisi 100 foiz ulush bilan "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ hisoblanadi. Mazkur holat korxonanining strategik qarorlari markazlashgan boshqaruv asosida qabul qilinishini ta'minlaydi hamda butun tizimning institutsional barqarorligini mustahkamlaydi. Shu tariqa, tashkilotning faoliyati nafaqat tijorat manfaatlarini ko'zlash, balki temir yo'l vokzallarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va islohotlarning amaliy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks mexanizmlarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

2024-yil yakunlari bo'yicha "Temir yo'l vokzallari" MChJda 1051 nafar xodim faoliyat yuritib, ularning o'rtacha oylik ish haqi 4 349 ming so'mni tashkil etdi. Biroq hisobot davrida korxona 30,6 mlrd so'm zarar bilan ishlagan bo'lib, unga asosiy sabab sifatida xarajatlar yuqoriligi qayd etiladi (1-rasm).




1-rasm. "Temir yo'l vokzallari" MChJ xarajatlar tarkibi

Xarajatlar tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ish haqi fondi umumiylar xarajatlarning 53 foizini tashkil etib, korxonaning asosiy moliyaviy yukini belgilamoqda. Bu holat temir yo'l vokzallari faoliyatida inson omilining ustuvorligini hamda mehnat resurslariga yuqori darajada tayanilishini ifodalaydi. Xarajatlar tarkibida ikkinchi yirik ulush amortizatsiya ajratmalariga to'g'ri kelib, ular asosiy vositalarning uzlusiz ishlashini, saqlanishini va yangilanishini moliyalashtirishdagi muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Olingan natijalar korxona faoliyatida xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish, mayjud resurslardan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va ularning turlarini diversifikatsiya qilish zaruriyatini asoslab bermoqda[9].

2024-yil yakunlari bo'yicha "Temir yo'l vokzallari" MChJ daromadlari tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiylar tushumning 82,4 foizi komission yig'imlar, 11,8 foizi bino va inshootlarni ijara berish hamda atigi 5,8 foizi qo'shimcha xizmatlar hissasiga to'g'ri kelib, daromadlar tarkibi tijorat faoliyatining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligini anglatadi.



2-rasm. "Temir yo'l vokzallari" MChJ daromadlari tarkibi



Hozirgi kunda temir yo'l vokzallari bevosita vokzal ma'muriyati tomonidan jami 15 turdag'i pullik xizmatlar taklif etilmoqda. Bular quyidagilar:

1. Vokzallarda va poyezdlarda reklama xizmatlari;
2. Yuk va bagajni qadoqlash hamda saqlash xizmatlari;
3. "VIP" zal xizmatlari;
4. "Komfort" zal xizmatlari;
5. Dam olish xonasi xizmatlari;
6. Planshetda elektron kutubxona taqdim etish xizmati;
7. Yuk tashuvchi (nosilshchik) xizmati;
8. Vokzalning nazorat qilinmaydigan hududida hojatxona xizmati;
9. Sartaroshxona xizmatlari;
10. Massaj kreslosidan foydalanish xizmati;
11. Vokzal hududida chakana savdo tashkil etish uchun bino ijerasi xizmati;
12. Vokzallarda gazeta va jurnallarni sotish xizmati;
13. Kutish zalida 2 soatdan ortiq foydalanish uchun Wi-Fi internet xizmati;
14. Bagaj saqlash kamerasi xizmati;
15. Chipta yetkazib berish xizmati.

Bu xizmatlardan 2024-yilda jami 2,6 mlrd so'm daromad ko'rgan bo'lsa, vokzal hududidagi bino va maydonlar ijarasidan 5,3 mlrd daromad ko'rganini takidlash zarur. Bu vokzallar umumiylar daromadining atiga 18% qismiga to'g'ri kelmoqda. Xalqaro tajribani qaraydigan bo'lsak, bitta germaniya vokzallari 2023-yilda qo'shimcha va tijorat faoliyatidan 429 mln yevro daromad ko'rgan va bu kompaniyaning umumiylar daromadlarini 29,6%ini tashkil qiladi[10]. Gongkongda esa bu ko'satkich 2023-yilda 655 mln AQSH dollarini tashkil qilib, qo'shimcha xizmatlarning umumiylar daromaddagi ulushi 25,4%ni tashkil qilgan[11].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, transport sohasi rivojlangan mamlakatlar vokzallarida qo'shimcha xizmatlar ko'lami ancha keng diversifikasiyalashgan bo'lib, o'tacha rivojlangan stansiyalarda 30 dan ortiq xizmatlar, yirik "hub" vokzallarda esa 50 ga yaqin zamonaviy xizmat turlari taklif etiladi. Shu bilan solishtirganda, "Temir yo'l vokzallari" MChJ faoliyatida qo'shimcha va tijorat faoliyati asosan ikki yo'nalishda — vokzal hududidagi bino va maydonlarni tadbirkorlarga ijaraga berish hamda mavjud 15 turdag'i xizmatlarni bevosita o'zi tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Daromadlar tarkibida ijaradan tushgan mablag'larning ulushi 12 foizni tashkil etib, qo'shimcha xizmatlardan olingan daromadlarga nisbatan deyarli ikki barobar yuqoriligi kuzatiladi. Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlarni ijaraga berish mexanizmi orqali rivojlantirishning ustun va zaif jihatlari esa quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha tijorat faoliyatini binolarni ijaraga berish orqali rivojlantirishning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
Tez va oddiy amalga oshirish.	Daromad salohiyati cheklangan
Barqaror pul oqimi.	Innovatsiya va modernizatsiya yetishmasligi
Past xavf.	Xizmat sifati ustidan nazorat zaif
Moslashuvchanlik.	Bozor xavfi vokzal zimmasida
	Joydan samarasiz foydalanish ehtimoli
	Brend boshqaruvi tarqoqlashadi
	Ijtimoiy noqulaylik xavfi

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, vokzal hududidagi binolarni ijaraga berish mexanizmi ma'lum afzalliklarga ega bo'lishi bilan birga, qator jiddiy kamchiliklarni ham o'zida mujassam etadi. Shu nuqtai nazaridan, qo'shimcha tijorat faoliyatini rivojlantirishda faqatgina ijara shakliga tayanish emas, balki davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv vokzal infratuzilmasida xizmatlarni samarali tashkil etish va ularning diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini beradi. Quyida qo'shimcha xizmatlarni yo'lga qo'yishda 18 ta mezon asosida oddiy ijara shartnomasi va DXSh shartnomasining solishtirma tahlili keltirilgan.



2-jadval. Ijara va DXSh shartnomalarining taqqoslanishi

Mezon / jihat	Oddiy ijara shartnomasi	DXSH (PPP) shartnomasi	Qaysi biri mukammalroq
1. Maqsad	Vaqtinchalik foydalanish, qisqa muddatli daromad olish.	Infratuzilmani rivojlantirish, yangi servis yaratish, uzoq muddatli daromad olish.	DXSH – strategik va rivojlantiruvchi bo'lgani uchun mukammalroq.
2. Muddat	1–5 yil.	10–30 yil.	Har ikkalasi vaziyatga qarab foydali: qisqa loyihsada ijara, uzoq muddatli strategiyada DXSH.
3. Investitsiya majburiyati	Kichik ta'mir yoki minimal xarajat.	Xususiy sherik katta hajmda kapital qo'yadi.	DXSH – infratuzilma va servis rivojlanadi.
4. Risk taqsimoti	Davlat zimmasida.	Risklar oqilona taqsimilanadi.	DXSH – risklarni samarali boshqaradi.
5. Innovatsiya va texnologiya	Cheklangan.	Yuqori, sherik ilg'or texnologiya va boshqaruv olib kiradi.	DXSH – innovatsiyani rag'batlantiradi.
6. Huquqiy tuzilma	Oddiy, shartnoma tez tuziladi.	Murakkab: tender, kontrakt, KPI/SLA, moliyaviy yopilish.	Ijara – huquqiy jihatdan soddaroq; DXSH – murakkab, lekin barqaror va keng qamrovli.
7. Moliyaviy model	Faqat ijara haqi.	Fiks to'lov + daromad ulushi + MDR + profit-sharing.	DXSH – ko'p manbali va dinamik moliyaviy model.
8. Daromad taqsimoti	Davlat faqat ijara haqini oladi.	Davlat ulushdor bo'ladi (foiz, fiks to'lov, kafolatlar).	DXSH – davlat uchun ko'proq manfaat keltiradi.
9. Yo'lovchi/iste'molchi manfaatlari	Ko'pincha hisobga olinmaydi.	KPI/SLA orqali sifat kafolatlanadi.	DXSH – yo'lovchi manfaatiga mos.
10. Shahar va infratuzilma integratsiyasi	Kam ta'sir qiladi.	TOD asosida shahar bilan integratsiya qilinadi.	DXSH – urbanistik rivojlanishga xizmat qiladi.
11. Moliyaviy resurs jalbi	Katta kredit jalbi qiyin.	Banklar uchun "bankabellik" yuqori, yirik investorlar jalb qilinadi.	DXSH – kapital jalb qilishda samarali.
12. Xizmat sifati nazorati	Nazorat sust.	SLA/KPI asosida qat'iy nazorat.	DXSH – xizmat sifati kafolatlangan.
13. Shartnoma moslashuvchanligi	Qisqa muddatli, oson bekor qilinadi.	Uzoq muddatli, bekor qilish qiyin; davlat kompensatsiya to'lashi mumkin.	Ijara – moslashuvchan; DXSH – barqaror.
14. Davlat uchun foyda	Faqat qisqa muddatli daromad.	Uzoq muddatli daromad + servis sifati + ijtimoiy foyda.	DXSH – kengroq manfaat beradi.
15. Minimal daromad kafolati (MDR)	Yo'q.	Bor.	DXSH – investor uchun xavfsizroq.
16. Qonunchilikdagi o'zgarish riski	Yo'q, ijarachi o'zi javobgar.	Bor, davlat kompensatsiya berishi mumkin.	DXSH – uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.
17. Kreditorlar bilan bevosita kelishuv	Yo'q.	Bor.	DXSH – moliyaviy yopilishni osonlashtiradi.
18. Ijtimoiy majburiyatlar	Yo'q.	Bor (arzon narx, qulaylik, xavfsizlik).	DXSH – jamoatchilik foydasini ham qamrab oladi.

Yuqorida jadval ma'lumotlari orqali shuni aytishimiz mumkinki juda ko'p mezonlarda tijorat faoliyatini aynan DXSh orqali tashkil etishda ustuvorlik mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Temir yo'l vokzallari" MChJ faoliyatida qo'shimcha xizmatlar ulushi yetarlicha diversifikatsiya qilinmagan bo'lib, daromad bazasining torligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, vokzallarda xizmatlarni kengaytirish va modernizatsiya qilishda faqatgina ijara



mexanizmlariga tayanish emas, balki davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida innovatsion loyihalarni joriy etish muhimdir. Taklif etilayotgan yondashuv qo'shimcha xizmatlar turlarini ko'paytirish, yo'lovchilar qoniqishini oshirish, investitsiya jabini kuchaytirish hamda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Cervero, R., & Murakami, J. (2009). Rail and Property Development in Hong Kong: Experiences and Extensions. *Urban Studies*, 46(10), 2019-2043. <https://doi.org/10.1177/0042098009339431>
2. Li X., Love P.E.D. Procuring Urban Rail Transit Infrastructure by Integrating Land Value Capture and Public-Private Partnerships: Learning from the Cities of Delhi and Hong Kong // *Cities*. 2022. Vol. 125. Article 103637.
3. Барчуков, А. В. Реализация партнёрства в инфраструктурных проектах железнодорожного транспорта / А. В. Барчуков // Транспорт Азиатско-Тихоокеанского региона. – 2013. – № 1(1). – С. 65-71.
4. Родионова, М. Е. Функции государства и частного сектора в проектах государственно-частного партнёрства / М. Е. Родионова, В. И. Германова // сборник статей VII Международной научно-практической конференции, Петрозаводск, 14 января 2021 года, 2021. – С. 84-89. – EDN GCSTAG.
5. Li X., Love P.E.D. Employing Land Value Capture in Urban Rail Transit Public-Private Partnerships: Retrospective Analysis of Delhi's Airport Metro Express // *Research in Transportation Business & Management*. 2020. Vol. 32. P. 100431.
6. Иванова, Е. А. Имиджевые и экономические аспекты внедрения цифровых сервисов для пассажиров на железнодорожных вокзалах / Е. А. Иванова, В. А. Шлеин // Транспортное дело России. – 2020. – № 4. – С. 22-25. – EDN EIARTE.
7. Шкурина, Л. В. Экономическое управление конкурентоспособностью инфраструктурной компании железнодорожного транспорта / Л. В. Шкурина, Ю. А. Харева. – Москва : Российский университет транспорта, 2018. – 143 с. – ISBN 978-5-7473-0879-4. – EDN YZQBYL.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Temir yo'l transporti sohasini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son qarori. 10.10.2023 y. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/6799786>
9. Kudrat Iskandarov. (2025). Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etishni samaradorligini oshirish yo'llari. «yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot» Jurnali, 3(8), 12–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16994398>
10. Deutsche Bahn AG. Annual Report 2023. DB Netze Stations — Development in the year under review [Elektron resurs]. Berlin, 2024. Rejim dostupa: [https://ibir.deutschebahn.com/...](https://ibir.deutschebahn.com/)
11. MTR Corporation Limited. Annual Report 2023 — The Year in Review (E12): tafsilotlar (Duty Free qaytishi va h.k.) [Elektron resurs, PDF]. Rejimdostupa: <https://www.mtr.com.hk/archive/corporate/en/investor/annual2023/E12.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100